

## SAYFI JALILNING «QALBIMDA» ASARINI VIOLONCHEL CHOLG‘USIDAGI IJRO TAHLILI

*Ziyatov Zafarjon*

*Farg ‘ona ixtisoslashtirilgan san’at maktabi*

*“Torli cholg‘ular ijrochiligi” bo‘limi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya** Makur maqola atoqli o‘zbek kompozitorlaridan Sayfi Jalilning “Qalbimda” asari hamda uning violonchel sozi uchun moslashtirilgan ijrosi haqidagi tahliliga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada Torli cholg‘u sozlarining umumiy tavsifi haqida ham ma’lumotlar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Kompozitor, violonchel, Torli cholg‘u ijrochiligi, moslashtirish, “Qalbimda”, “Detashe”, o‘lchov.

**Annotation** The article is dedicated to the analysis of the famous Uzbek composer Saifi Jalil's work "Qalbimda" and its adaptation for cello. The article also provides information about the general description of stringed instrument words.

**Key words:** Composer, cello, string instrument performance, adaptation, "In my heart", "Detachment", scale.

**Аннотация** Статья посвящена анализу произведения известного узбекского композитора Сайфи Джалиля «Калбимда» и его обработки для виолончели. Также в статье приведены сведения об общем описании слов струнных инструментов.

**Ключевые слова:** Композитор, виолончель, исполнение на струнном инструменте, обработка, «В моем сердце», «Отряд», размер.

Musiqiy cholg‘ular insoniyat ma’naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya’ni xalq ijodiyoti mahsuli bo‘lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo‘jizaviy va ifodaviy asboblardir. Cholg‘ularda har bir xalqning milliy g‘ururi, an’anasi, qadriyatlari o‘z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg‘ulaming shakliga va milliylik mezoniga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarix davomida doimo musiqiy cholgʻularga boʻlgan eʼtibor katta boʻlishi bilan birga tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega boʻlib kelgan. Zamonaviy jarayonda oʻtmish anʼanalariga yangicha qarash, ilgʻor rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Torli cholgʻular qadim zamonlardan shakllanib, turli xalqlar amaliyotida oʻz maʼnaviyati va anʼanasi doirasida rivoj topib kelgan musiqiy asboblardan bir turi hisoblanadi. Torli cholgʻuning kelib chiqishi tarixiga aniq bir maʼlumot berish mushkul. Oʻtmish manbalarida keltirilgan rivoyatlaiga koʻra, birinchi kashf etilgan torli cholgʻuning nomi Barbat boʻlgan va ilk bor buyuk yunon olimi Fisogʻurs (Pifagor) tomonidan ixtiro etilganligi qayd etiladi [1].

Darhaqiqat, ilk yasalgan (yaratilgan) cholgʻu har tomonlama sodda va oddiy boʻlgan va keyinchalik rivojlangan. Bu haqda maqomshunos olim I.Rajabov yozadi: «Fisogʻursdan soʻnggi davrlarda yashagan musiqachilar barbatni takomillashtiradilar va uning asosida 2-3-4 torli musiqa asboblari yasadilar. Barbatni esa, koʻp manbalarda hamma torli asboblarning yuzaga kelishida asos boʻlgan, deb koʻrsatiladi»[2]. Barbat esa udsimon cholgʻu ekanligi va ud cholgʻusini yasashda Barbat asos boʻlganligi ham koʻp manbalarda bayon etilgan. Inson tafakkuri torli cholgʻuni ixtiro etib, uni maʼlum darajada rivojlantirgandan soʻng, uning umumbashariy rivoji har bir xalqning madaniyati, maʼnaviyati va anʼanasi asosida shakllanib rivoj topadi.

Cholgʻulami har bir xalqning oʻziga xos va turli vositalar orqali ijro etiladigan namunalari yuzaga keladi. «Oldiniga torli cholgʻularning shakllari, - deb yozadi V.Belyayev, — yoysimon boʻlgan. Yaʼni, yogʻochli (taxtali) egma tanali (korpusli) boʻlgan va unga bir va bir nechta torlar tortilgan. Vaqt oʻtishi bilan ushbu taxtali tana toʻgʻrilanib borgan va dasta yoki cholgʻu asbobi dastasi shakliga kelgan. Shu bilan birga dastaga mos rezonator vazifasini bajaradigan kosaxonalar, avvaliga jonzodlardan (toshbaqa, zihr) yoki oʻsimlik mevalari (qovoq, kakos yongʻogʻi va h.k.) biriktirilgan.

Taraqqiyot jarayoni esa har bir xalqning oʻz cholgʻu asboblarini yuzaga kelishiga sabab boʻlgan. Cholgʻularning kosaxonasi qaysi jihozdan va uning katta-kichiklik hajmi, dastasining uzun-qisqaligi hamda torlar soni va nisbati davrlar oʻtishi bilan

rivojlanib takomillashib borgan. Oʻrta Osiyo xalqlarida bir qator tanbursimon, dutorsimon va qoʻbiz gʻijjak kabi cholgʻular yaratilib amaliyotda keng qoʻllanila boshlangan. Oʻrta asrlarga kelib musiqiy cholgʻularning har biri shaklu shamoyiliga, ovoz tarannum nufuziga va xalq orasida katta eʼtiboriga ega boʻlgan. Cholgʻu sozlarning xalq orasidagi ommalashuvi oʻz zamonasining faylasuflari, allomalari tadqiqotlarining manbaiga aylanishiga ham asos boʻlgan. Bu sohadagi tadqiqotlarning boshida IX asrda yashab ijod etgan qomusiy olim Abu Nasr al-Forobiy turadi. «Musiqada cholgʻu asboblari, tajribadagi amaliy izlanishlar natijasi va umumlashmasi degan qarashlardan kelib chiqqan holda Forobiy musulmon olamining mumtoz sozlari boʻlmish ud, tanbur, rubob, qonun, arganun (organ), nay, sumay va boshqalarning ilmiy tavsifini bergan... olimlar Kurd Zaks va Erix Xoribostellarning fikricha, asbobshunoslik (organologiya) faniga Forobiy asos solgan. Musiqa haqidagi katta kitobida musiqashunoslik tarixida birinchi bor cholgʻu sozlarning ilmiy tasnifoti bayon etilgan».[3]

Forobiydan keyin musiqiy cholgʻular va cholgʻu ijrochiligiga xos turli maʼlumotlar Ibn Sino «Javomi ilm al-musiqa» (X asr), Abu Abdulloh Xorazmiy (X asr), Abduqodir Marogʻiy «Kitob ul nagʻam» (XIV asr), Zaynullobiddin Husayniy «Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy» (XV asr), Abdurahmon Jomiy «Risolai musiqiy» (XV asr), Amuliy (XIV asr)

Kompozitor, sozanda, dirijyor, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi, Oʻzbekiston xalq artisti Sayfi Jalilning oʻzbek musiqa sanʼatida tutgan oʻrni juda katta. Kompozitor musiqa sanʼatining koʻp janrlarida ijod qilgan. Ayniqsa Tanbur va oʻzbek xalq cholgʻulari uchun «Qalbimda» poemasi orqali oʻzbek anʼanaviy bastakorlik uslubini yevropacha kompozitorlik ijodiyoti tamoyillari bilan uzviy uygʻunlashtirishga erishgan. Ushbu asar dastlab tanbur, keyinchalik turli oʻzbek xalq cholgʻulari uchun yozilgan boʻlishiga qaramay, vaqt oʻtishi bilan anʼanaviy nay va boshqa sozlarga moslashtirilib ijro etilgan.

Violonchel cholgʻusida esa Mirza Toirovning «Nay uchun pyesalar» oʻquv qoʻllanmasida mavjud moslashtirilgan koʻrinishidan andoza olgan holda ijro etish mumkin boʻladi. Kezi kelganda shuni taʼkidlash kerakki, oʻzbek kompozitorlari tomonidan bastalangan asarlar sanoqli hisoblanadi.

Bevosita asar tahliliga keladigan bo'lsak, avvalo «Nay uchun pyesalar» o'quv qo'llanmasiga kiritilgan «Qalbmida» asarini violonchel cholg'usiga moslashtirishdan boshlaymiz. Moslashtirish jarayonida notalar uzunligida juziy o'zgarishlar yuz berishi mumkin. Masalan asarning 17 takti 2 hissasida o'n oltitalik nota o'rniga 2-hissaga nuqta qo'yilganda sakkitalik nuqtali nota hosil bo'ladi.

Huddi shunday nota uzunligi o'zgarishlari 22-29-42-51-77-82-89-taktlarda ham uchraydi. Bu o'zgarishlar bilan bir qatorda violonchelga moslashtirilganda bir oktava pasayadi.

Asar tahlilini asar qaysi tonallikda yozilganligini aniqlashdan boshlaymiz. «Qalbmida» asarini boshlanish va tugash notalari mi bo'lganligi, hech qanday belgi yo'qligini hisobga olgan holda mi minor xalq ladi asosida yozilganligi aniqlash mumkin. Bunda mi minor tonalligida bitta fa diez kalit belgisi bo'lishi, minor ladlariga mansub frigiya xalq ladida esa har qanday minor tonalligining 2-pog'onasi yarim ton pasayishini yodga olish kifoya qiladi.

Asar 2/4 o'lchovida yozilgan. 2/4 o'lchovida bitta kuchli xissa bo'lganligi oddiy o'lchovlar turiga kiradi.

«Qalbmida» kuyi lirik shakldagi o'zbek kompozitori bo'lganligi uchun Torlikamonli cholg'ularda mavjud eng asosiy shtrixlardan biri hisoblangan «Detashe» shtrixida ijro etiladi. «Detashe» shtrixi kamonni uzmasdan ijro etiladigan shtrixlar qatoriga kiradi.

Asar ijrosiga kirib borganda fortepiano ya'ni jo'rnavoz ijrosidan keyin 9-taktdan boshlab 1-jumlani 12 taktdan iborat ekanligini ko'rish va ijroda his qilish mumkin. Bunda ijrochi ijroda jumla boshlanishi va tugashini anglashi lozim bo'ladi. 1 jumla tugashi bilan ikkinchi jumlagacha o'tamiz. Ikkinchi jumla ijrosi ham 12 taktdan iborat hamda 1-2-jumlalarga repriza belgisi qo'yilganini takidlab o'tish kerak. Birinchi va ikkinchi jumlar qo'shilganda I-qism hosil bo'lganini aniqlash mumkin. I-qism tugaganidan keyin 4 to'rt takt jo'rnavoz ijrosiga duch kelinadi. Jo'rnavoz ijrosidan keyin asarning II-qismi boshlanadi. Kuyning II-qismi I-qismiga qaraganda ko'proq va murakkabroqdir. Asarning avj nuqtasi sifatida II-qismning 22-takti ekanligini ta'kidlash darkor. Bu taktga kuyni yana ham sayqallash maqsadida rit nota belgisi qo'yilgan. Asar

avj nuqtasi ijrosidan keyin asta-sekin kuy boshidagi 2-jumlada mavjud ijroga qaytib boradi hamda tonikaga yechilib nihoyasiga yetadi. Xulosa qilib aytganda «Qalbimda» asari 2 qismli shakldan iborat ekanini ko‘rishimiz mumkin. Ijro jarayonida o‘zbek xalqiga xos ohangni his qilishi orqali ijrochi asarni o‘z qalb tug‘yoni bilan ifodalab berishi kerak bo‘ladi. «Qalbimda» poemasida Sayfi Jalil o‘z ijodi ila nozik did bilan o‘zbek musiqiy me’rosi qanchalar boy ekanini isbotlab bergan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Fisog'urs yunoncha ismi Pifagor. Eramizdan oldingi VI asrda yashab ijod etgan buyuk faylasuf alloma. Musiqiy cholg'ular yaratilishiga bog'liq rivoyatlar I.Rajabovning «Maqomlar masalasiga doir» kitobida, musiqada yettita tovush niujassamligi borasida A.Navoiyning «Lison ut-tayr» kitobidagi «Qaqnus» hikoyasida keltiriladi.
2. I.Rajabov, «Maqomlar masalasiga doir». T., «Fan»
3. O.Matyobov, «Maqomot». T., «Musiqqa», 2004, 272-b.